


QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2026- yil 1- may holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

- I. Korxonalar va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxonalar va tashkilotlarning soni.

2026- yil 1- may holatiga ko'ra, viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 31 572 tani tashkil etadi, shundan 26 170 tasi yoki 82,9 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalardir. 2025- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,5 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 111,1 foizni tashkil etdi.



Soni



O'sish sur'ati

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).

Yillar	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2026	31 572	26 367	26 170
2025	28 824	23 726	23 554
2024	30 680	25 778	25 617
2023	37 777	32 989	32 770
2022	38 077	33 247	33 046

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxonalar va tashkilotlar Qarshi shahri – 20,5 foiz, Qarshi – 7,7 foiz, Kitob – 7,0 foiz, Koson – 6,8 foiz va Yakkabog' – 6,8 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Shahrisabz shahri – 86,3 foiz va 85,9 foiz, Qarshi – 85,7 va 85,0 foiz, Qarshi shahri – 85,7 foiz va 84,5 foiz hamda Nishon – 84,3 foiz va 83,9 foiz tumanlarga to'g'ri keldi.

Hududlar	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
G'uzor	1 486	1 208	1 192
Dehqonobod	1 258	984	981
Qamashi	1 927	1 608	1 604
Qarshi	2 358	2 021	2 004
Koson	2 180	1 802	1 787
Kitob	2 241	1 856	1 850
Mirishkor	1 123	918	915
Muborak	1 002	830	815
Nishon	1 541	1 299	1 293
Kasbi	1 453	1 218	1 212
Ko'kdala	1 460	1 217	1 215
Chiroqchi	1 728	1 397	1 389
Shahrisabz	1 618	1 297	1 292
Yakkabog'	2 127	1 786	1 777
Qarshi shahri	6 298	5 397	5 322
Shahrisabz shahri	1 772	1 529	1 522

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026- yil 1- may holatiga 31,4 foizni (37,6 foiz va 37,7 foiz) tashkil etdi.



Korxonalar va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 15,6 % (18,6 % va 18,7 %), uchinchi o'rinda "Sanoat" 9,7 % (11,6 % va 11,5 %).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50 % dan ortig'ini tashkil qiladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4 923	4 894	4 888
Sanoat	3 056	3 049	3 005
Qurilish	2 119	2 097	2 059
Savdo	9 903	9 901	9 870
Tashish va saqlash	838	832	824
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 699	1 689	1 686
Axborot va aloqa	433	427	426
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 107	752	749
Boshqa turlar	7 494	2 726	2 663

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar.

2026- yil 1- may holatiga ko'ra, 26 367 ta faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalaridan 17 224 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlarni tashkil etib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	17 224	65,3
Xususiy korxonalar	5 787	22,0
Oilaviy korxonalar	2 937	11,1
Aksiyadorlik jamiyati	28	0,1
Boshqalar	391	1,5

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar.

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 173 ta korxonalaridan 86 tasi qo'shma korxonalar va 87 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

2026- yil 1- may holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining soni 173 ta bo'lib, Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p faol korxonalar, sanoat sohasida 71 tani, savdo sohasida 38 tani va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 33 tani tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	173	86	87
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	33	13	20
Sanoat	71	29	42
Qurilish	7	5	2
Savdo	38	21	17
Tashish va saqlash	3	2	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	4	-
Axborot va aloqa	1	-	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3	2	1
Boshqa turlar	13	10	3

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar.

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 51 ta korxonalar bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatimizdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 29,5 foizini tashkil etdi. Viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (13,3 %), Turkiya (12,7 %), Afg'oniston (8,1 %) va Janubiy Koreya (5,2 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	173	86	87
Xitoy	51	18	33
Rossiya	23	15	8
Turkiya	22	9	13
Afg'oniston	14	2	12
Janubiy Koreya	9	6	3
Qozog'iston	6	5	1
Eron	5	4	1
Buyuk Britaniya	4	3	1
Niderlandiya	4	-	4
SHveysariya	4	4	-
AQSH	4	2	2
BAA	4	3	1
Germaniya	3	2	1
Tojikiston	3	2	1
Qirg'iz Respublikasi	3	1	2
Pokiston	2	1	1
Boshqa Davlatlar	12	9	3

IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar.

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539- son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2026- yil 1- may** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:

L.Xujamqulov
75 221-17-93 (7060)

Maznil:

180100, Qarshi shahri.,
Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy
